**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY TA`LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**
**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**

**Ro`yxatga olindi**
№ MD-70230101-202
"30" 03 2024 yil

**"TASDIQLAYMAN"**
**O`quv ishlari bo`yicha prorektor**
**R.N. To`rayev**
**2024-yil "30" 08**

# ASOSIY CHET TILI
## (C1+)
## (TANLOV FAN)

**FANNING O`QUV DASTURI**

| | |
|---|---|
| Bilim sohasi: | 200000 – San`at va gumanitar soha |
| Ta’lim sohasi: | 230000 – Tillar |
| Ta’lim yo’nalishi: | 70230101 - Lingvistika: nemis tili |

Termiz – 2024

| Fan/modul kodi AO´CHTM512 | | O`quv yili 2024-2025 | Semestr 1-2 | Kreditlar 8 | |
|---|---|---|---|---|---|
| Fan/modul turi tanlov | | Ta'lim tili Nemis | | Haftadagi dars soatlari 4 | |
| 1. | Fanning nomi | | Auditoriya mashg'ulotlari (soat) | Mustaqil ta'lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
| | Asosiy chet tili (C+) | | 120 | 120 | 240 |

2.

**I. Fanning mazmuni**

Fanning maqsadi – magistrantlarning chet tili bo'yicha bilimlarini ilmiy va kasbiy faoliyatga yo'naltirgan holda C1+ darajaga (CEFR) ko'tarish, chet tilida ilmiy tadqiqot olib borish va kasbiy malakalarini rivojlantirish.

Fanning asosiy vazifasi – magistratura bosqichi talabalarining ilmiy va kelgusidagi kasbiga oid yo'nalishlarda chet tilida ma'ruzalar qilish va ilmiy maqolalar yozish kompetensiyalarini takomillashtirish, til birliklarining qo'llanilish xususiyatlari va me'yorlari bo'yicha bilimlarini chuqurlashtirishdan iborat.

**II. Fan tarkibiga chet tilini egallashning quyidagi kompetensiyalari kiradi:**

**Tinglab tushunish:**

keng qamrovli mavhum va murakkab mavzulardagi matnlar;
keng ko'lamdagi idiomatik iboralar va og'zaki nutq namunalariga boy audio tasmalar, axborot va ommaviy e'lonlar (masalan, temir yo'l vokzali, sport maydonchasidagi e'lonlar);
guruh muhokamasidagi asosiy va boshqa ishtirokchilar o'rtasidagimurakkab muloqot;
teledastur va filmlar;
o'rganilayotgan til sohibi bo'lgan va bo'lmagan so'zlashuvchilarning turli rasmiy va norasmiy doiralardagi yoki ta'lim muassasalaridagi autentik og'zaki nutq namunalari;
sohaga oid ma'ruzalar, bahs-munozaralar;
dars jarayonidagi o'qituvchilik nutqi tahlili.

**Gapirish:** *Dialogik nutq:*

shaxslararo muloqot va suhbatlar;
ommaviy munozaralar va rasmiy muhokama;
o'z mutaxassislik sohasiga oid bo'lm auditoriyada qo'llaniladigan iboralar;
dars jarayonida muammolar bilan shug'ullanish;

*Monologik nutq:*

ilmiy posterlarni taqdimotini o'tkazish
ko'rsatmalar;
taqdimotlar;
konkret yoki mavhum mavzular bo'yicha o'z mulohazasini bildirish va uni asoslay olish;



o'z fikrini asoslangan tarzda ifoda etish;
fikrlar, muhokama yoki sohaga oid maqola yuzasidan umumlashganxulosa chiqarish.

**O'qish:**

ijtimoiy, mutaxassislik yoki ta'lim sohalarida uchrash ehtimoli bo'lgan birmuncha uzun va murakkab matnlar;
ilmiy maqolalar va adabiyotlar;
badiiy va ilmiy-ommabop kitoblar, shuningdek adabiy jurnallar;
gazeta va jurnallar;
yo'riqnomalar (qo'llanmalar, taomnoma kitoblari va hokazo);
reklama materiallari;
turli ma'lumotnoma shakllari, o'qituvchi kundaligi, so'rovnomalar; rasmiy xatlar, elektron xatlar va hokazo (memorandumlar, ma'ruzalar, tanqidiy bayonotlar/maqolalar, ilmiy ishlar).

**Yozuv:**

ma'lumotnoma shakllari va so'rovnomalar;
ish va mutaxassislikka doir rasmiy xatlar;
mavzu tanlash bayonoti;
ilmiy maqola;
ilmiy maqola va havolalarn rasmiylashtirish;
ilmiy va o'quv adabiyotlariga taqriz;
ilmiy manbalarni sintezlash;
tanqid;
annotatsiya;
rezyume;
tezis;
munozarali insholar

**Nutqning grammatik jihati:**

ixtisoslashgan matnlardagi grammatik strukturalar(masalan,ilmiyinshoda majhul nisbatning qo'llanilishi);
pedagogik diskurs namunalari (masalan, grammatik, leksik yoki mazmun jihatdan bog'lanish);
og'zaki va yozma matnda bog'lovchilarni qo'llash;
artikl va belgilovchilar (determinantlar).

**Sotsiolingvistik kompetensiya**

tilning madaniyatjihatlari (masalan, idiomalar, maqollar vahokazo);
xulq-atvor, o'zini tutish va etiket qoidalari;
noverbal kommunikatsiya vositalari;
ijtimoiy va ilmiy doiraga xos tarzda tilni moslashtirish;
madaniyatlararo muloqotni chuqurroq tushunib etish;
o'zga millat vakillariga nisbatan hurmat va tolerantlik;
o'zga madaniyat va turli vaziyatlarga moslashish.

**Pragmatik kompetensiya**

nutqni tushunish, talqin etish va so'zlashdagi tegishli strategiya va uslublar;
turli diskurslar tarkibi va mazmunini bilish;
muloqotdagi bo'shliqlarning oldini olish maqsadida tilkamchiliklarini bartaraf

| | |
|---|---|
| | etish;<br>rasmiy va norasmiy doiralarda nutqni bo'lish, aniqlik kiritish, boshqacha talqin etish, jumlalarni tuzatish,to'ldirish va hokazo strategiyalar.<br><br>**IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**<br>Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular va mustaqil ish shakllari:<br>Berilgan mavzu bo'yicha qo'shimcha til materiali yig'ish, uni tahlil qila olish (Library research, Reading Log, Writing Assignment);<br>Debatlarga tayyorgarlik ko'rish: Ilmiy-texnik progress va uni insoniyatga bo'lgan ta'siri: bioinjeneriya, nanotexnologiya, zamonaviy axborot texnologiyalari, atrof-muhitning ifloslanishi, ishsizlik. O'zbekiston va tili o'rganilayotgan mamlakatlarning zamonaviy ta'lim tizimi. Ta'lim muassasalarining turlari, ta'lim bosqichlari, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, magistraturada ta'lim, chet elda ta'lim olish;<br>ilmiy posterlarni loyihalash va ularni himoya etishga tayyorgarlik ko'rish;<br>portfolio tayyorlash;<br>mavzu bo'yicha ilmiy maqolalar yozish;<br>ilmiy va o'quv adabiyotlarni tahlil qilish va taqriz yozish;<br>taqdimot ustida ishlash: hozirgi zamon dunyo muammolari:Giyohvandlik, terrorizm, jinoyat va jazo, ekologiya, etnik nizolar,kasalliklar.Sog'liqni saqlash tizimi: Sog'lom turmush tarzi, sog'liqni saqlash, tibbiyotning SHarq va G'arbda rivojlanishi, an'anaviy va noan'aviy tibbiyot turlari; Magistrantlarning mustaqil ishi dasturning asosiy bo'limlari asosida rejalashtiriladi va quyidagi ish turlarini nazarda tutadi:<br>amaliy til materialini yig'ish, kartochkalar tuzish, kognitiv lingvistikaning nazariy va amaliy muammolari bo'yicha testlar tuzish;<br>ma'lum bir til sathiga tegishli til birliklarini egallangan bilim va ko'nikmalarga asoslanib tahlil qilish va prezentatsiya qilish;<br>darslik va o'quv qo'llanmalar, maxsus adabiyotlar bo'yicha fan bo'limlari va mavzularini o'rganish va ustida ishlash;<br>ma'ruza kursining ma'lum bir qismlari bo'yicha prezentatsiyalar va ma'ruza fragmentlarini tayyorlash;<br>tanlangan mavzu bo'yicha referatlar yozish va loyihalar tayyorlash;<br>o'rganilayotgan chet tili lisoniy materiali yoki adabiyoti materiali asosida kontseptual tahlil metodlarini qo'llagan holda til va tafakkur munosabatlarini, milliy dunyoqarashning xususiyatlarini, lisoniy-kognitiv foliyatning milliy-madaniy xususiyatlarini tahlil etish;<br>zamonaviy lingvistikaning asosiy muammolari bo'yicha ilmiy tadqikot olib borish.<br>Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan ilmiy loyihalar, portfoliolar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi |
| 3. | **VI. Ta'lim natijalari /Kasbiy kompetentsiyalar**<br>**Talaba:**<br>• tilshunoslik tarixida ro'y bergan paradigmalar siljishi, antropotsentrik paradigma xususiyatlari, zamonaviy lingvistik yo'nalishlarning an'anaviy tilshunoslikdagi fanlardan farqli jihatlari; zamonaviy lingvistika fanining nazariy va amaliy yutuqlari; zamonaviy lingvistik yo'nalishlaridagi turli nazariy qarashlar va yetakchi kontseptsiyalar **to'g'risida** |



| | |
|---|---|
| | **tasavvurga ega bo'lishi kerak (bilim);**<br>• zamonaviy lingvistik yo'nalishlarning terminologik apparati, qonuniyatlari va asosiy tushunchalari, asosiy tamoyillari va ularning xususiyatlari; madaniy birliklar va ularning turlari, nutqiy akt, kontsept va uning turlari, freym nazariyasi va uning tahlili; bilim tuzilmalari, axborot, kategorizatsiya, kontseptualizatsiya, kognitsiya, prototip, kontseptual va lisoniy dunyo tasviri; kognitiv metafora, uning turlari va verballashuv xususiyatlari; pragmatikadagi kooperatsiya tamoyili, nutqiy akt turlari, pragmatik vazifalar, kommunikativ-pragmatik hodisa, hushmuomalalik tamoyili, nutqiy aktning semantik-pragmatik xususiyatlari; zamonaviy lingvistik yo'nalishlar bo'yicha mavzularni bilish va egallagan nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llash bilishi va ulardan **foydalana olishi (ko'nikma);**<br>• lisoniy material bilan ishlash, muayyan nazariy masalalarga oid fikrlarni bayon etishi, ayni fikrlarga nisbatan tanqidiy munosabatini shakllantirish va ifodalash; lisoniy birliklarni tahlil qilish metodlarini (kross-madaniy tahlil, kontseptual tahlil, lingvopragmatik tahlil, freym tahlil, kognitiv xarita tuzish) bilish va ularni amaliyotda qo'llash, til birliklari kognitiv va madaniy tahlilini boshqa yondashuvlardan (struktural, generativ, semantik) farqli jihatlarini qiyosiy tahlil qilish, til birliklarda aks ettirilgan milliy dunyo tasvirini ifoda etuvchi milliy-madaniy bo'yoqdor lisoniy birliklarni ajrata olish, ilmiy tadqiqot jarayonida dolzarb masalalarni aniqlay olishi va til birliklarini tahlil qilishda ularning yechimini topa olish, egallagan bilimlarni o'z ilmiy tadqiqot amaliyotida qo'llash **ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak (malaka)** |
| 4. | **VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**<br>Fanni o'zlashtirish uchun o'qitishning zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan keng foydalaniladi: portfolio tayyorlash, guruhli muzokaralar, jamoa loyihalari, juftliklar bo'lib topshiriqlarni bajarish, yakka holda ma'lum mavzu bo'yicha prezentatsiyalar qilish, davra suhbatlari o'tkazish, diskussiya, klaster, bahs-munozara, refleksiv usullar (tahlil, qiyoslash, sintez, baholash). Axborot texnologiyalari, jumladan, mulьtimedia vositalari yordamida mashg'ulotlar tashkil etilgan, Power Point, Prezi dasturlari yordamida prezentatsiyalar yaratilgan. O'quv platformasiga fan bo'yicha dasrlik va o'quv qo'llanmalar, media resurslar va testlar joylashtirilgan. |
| 5. | **VII. Kreditlarni olish uchun talablar:**<br>Fanga oid terminologik apparat, qonuniyatlar va asosiy tushunchalarni bilishi; zamonaviy lingvistik yo'nalishlarining asosiy tamoyillari va ularning xususiyatlarini bilishi; zamonaviy lingvistik yo'nalishlarining asosiy tushunchalariga ilmiy izoh bera olishni va ushbu tushunchalarini o'z ilmiy tadqiqotlarida qo'llay olishi; lisoniy materialni lingvopragmatik jihatlarini aniqlash hamda tahlil qilish;muayyan nazariy masalalarga oid fikrlarni bayon etishi, ayni fikrlarga nisbatan tanqidiy munosabatini shakllantirish va ifodalash; ilmiy tadqiqot jarayonida dolzarb masalalarni aniqlay olishi va til birliklarini tahlil qilishda ularning yechimini topa olish; egallagan bilimlarni o'z ilmiy tadqiqot amaliyotida qo'llashni bilish hamda joriy, oraliq va yakuniy nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni muvaffaqiyatli topshirish. |
| 6. | **Asosiy adabiyotlar**<br>1. Ismoilov YU., Ismatillaeva D. Deutsch Professionell. Turon-Matbaa. MCHJ. Taschkent. 2014. Magistratura talabalari uchun nemis tili fanidan darslik.<br>2. Perlmann-Balme Michaela, Schwab Susanne, Matussek Magdalena. |

| | |
|---|---|
| | Sicher!C1. Hueber Verlag. München. 2015<br>**Qo'shimcha adabiyotlar**<br>1. Mirziyoev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11.<br>2. Mirziyoev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O'zbekiston, 2016. - 56 b.<br>3.Mirziyoev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: O'zbekiston, 2017. - 48 b<br>4.Winkler Maresa, Dallapiazza Rosa-Maria, Evans Sandra. Ziel C1, Band 1, Lektion 1–6: Deutsch als Fremdsprache. Verlag Hueber. München. 2010.<br>5.Koithan Ute , Schmitz Helen , Sieber Tanja , Sonntag Ralf. Aspekte neu C1: Mittelstufe Deutsch. Lehr- und Arbeitsbuch. Verlag Hueber. München.2016<br>**Axborot manbalari**<br>3. http://www.ziyonet.uz<br>4. http://ziyouz.uz<br>5. http://www.pedagog.uz<br>6. http://www.edu.uz<br>7. http://www. https://www.linguistik.de<br>8. http:// https://www.ids-mannheim.de<br>9. http:// https://gfds.de<br>10. http:// http://www.germanistik.de<br>11. http:// https://www.germanistik-im-netz.de |

| |
|---|
| O`quv dasturi Termiz davlat universitetining O`quv-metodik Kengashining 2024-yil 30 08 dagi 1-sonli bayonnomasi bilan ma`qullangan. |
| **Fan/modul uchun mas'ul:**<br>U.Imomova – TerDu, Roman-german tillari kafedrasi mudiri, Phd |
| **Taqrizchilar:**<br>**Sh. A. Kenjaboyev** – Samarqand davlat universiteti meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiya universiteti Toshkent filiali, Tillar kafedrasi mudiri. |